



UDK: 911.3:30/33:66.041(575.1)

Xidoyatxon ABDINAZAROVA,

Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, g.f.f.d. (PhD)

E-mail xidoyatabdinazarova@gmail.com

QDPI dotsenti, g.f.d O.Qo'ziboeva taqrizi asosida

CHEMICAL INDUSTRY REGIONAL PROBLEMS IN FERGANA ECONOMIC REGION

Abstract

The article is devoted to issues of regionalization of the chemical industry in the Fergana economic region. In the conducted research, first of all, the territorial share of the population, the volume of production of chemical industry products and its territorial share were mathematically calculated in the section of territorial units of the economic region. Through calculations, the degree of specialization of the chemical industry in this area has been determined.

Key words: Fergana economic region, division of labor, regional division of labor, specialization, coefficient of specialization, population, share of population, volume of chemical industry output, share of output, region, region criteria, chemical industry, branch and regional structure, chemical industrial region.

РАЙОНИРОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РАЙОНЫ

Аннотация

Статья посвящена вопросам регионализации химической промышленности Ферганского экономического района. В проведенном исследовании в первую очередь математически рассчитывались территориальная доля населения, объем производства продукции химической промышленности и ее территориальная доля в разрезе территориальных единиц экономического района. Путем расчетов определена степень специализации химической промышленности в этой территории.

Ключевые слова: Ферганский экономический район, разделение труда, региональное разделение труда, специализация, коэффициент специализации, численность населения, доля населения, объем продукции химической промышленности, доля продукции, районирование, критерии районирования, химическая промышленность, отраслевая и региональная структура, химический промышленный район.

FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA KIMYO SANOATINI RAYONLASHTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqola Farg'ona iqtisodiy rayonida kimyo sanoatini rayonlashtirish masalalariga bag'ishlangan. Olib borilgan tadqiqotda dastavval iqtisodiy rayonning hududiy birliklari kesimida aholi sonining hududiy ulushi, kimyo sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning hududiy ulushi matematik hisoblab chiqilgan. Hisoblashlar orqali kimyo sanoati mazkur hududda qay darajada ixtisoslashuvga egaligi aniqlangan.

Kalit so'zlari: Farg'ona iqtisodiy rayoni, mehnat taqsimoti, hududiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, ixtisoslashuv koeffitsienti, aholi soni, aholi ulushi, kimyo sanoat mahsulot hajmi, mahsulot ulushi, rayonlashtirish, rayonlashtirish mezonlari, kimyo sanoat, tarmoq va hududiy tarkib, kimyo sanoat rayoni.

Kirish. Keyingi yillarda O'zbekiston kimyo sanoatini jadal rivojlantirishda hududlarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kimyoviy korxonalarni joylashtirish va uning hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil, 28 yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonining 22-maqsadida "Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish" [1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, O'zbekiston kimyo sanoatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini aniqlash, uning tarmoq va hududiy tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kimyo sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirish muammolari bilan O'zbekiston, MDH va xorij olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O'zbekistonda sanoat tugunlarining shakllanishi va rivojlanishi, sanoat ishlab chiqarishi, uning hududiy tashkil etilishi, unga xos muammolar bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalari K.N.Bedrinsev, N.N.Sultonov, S.K.Ziyodullayev, T.Tajimov, A.N.Ro'ziyev, A.S.Soliyev, Ye.K.Umarov, O.Abdullayev, S.Xaydarov, L.N.Erdanov, H.S.Mirzaaxmedov, X.M.Abdunazarov, D.R.Ro'zmetov, A.J.Siddiqov, SH.S.Jo'rayev kabilar shug'ullangan bo'lsalar [2,4], MDH davlatlaridan M.K.Bandman, N.N.Kolosovskiy, I.M.Maergoyz, Yu.G.Saushkin, A.T.Xrushev, A.Yu.Bannikov, shuningdek, xorijlik W.Isard, W.Laungardt, A.Lesch, A.Marshall, F.Perrou, M.Porter, A.Weber kabi olimlarning ilmiy ishlarida sanoat taraqqiyoti, tafovutlari, sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish hamda rivojlantirishning ayrim masalalari tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda rayonlashtirish masalalari juda murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, u hududiy ixtisoslashuv asosida yuzaga keladi. Chunki ixtisoslashuv asosida mehnat taqsimoti yotadi. Hududlarda

aholining muayyan bir mehnat turi bilan muntazam shug'ullanishi natijasida mehnat taqsimoti yuzaga keladi. Mehnatning hudud bo'yab yoyilishi esa o'z navbatida ixtisoslashgan xo'jaliklarning shakllanishiga olib keladi. Xo'jaliklarning ixtisoslashgan sohalarini aniqlashda esa ixtisoslashuv ko'rsatkichlaridan foydalaniladi [2, 3, 6, 9,]. Ixtisoslashuv muayyan bir hudud aholisi sonini shu hudud aholisi sonidagi ulushi bilan jami ishlab chiqarilgan mahsulot ulushida shu hudud mahsulot ishlab chiqarish ulushiga nisbati orqali aniqlanadi. Buni matematik jihatdan quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$K_i = M_u / A_u$$

Bu yerda K_i – ixtisoslashuv koeffitsienti, M_u – mahsulot ulushi va A_u – aholi ulushi. Ixtisoslashuv koeffitsienti $K \leq 1$ bo'lganda yuzaga keladi, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulot ulushi, ma'lum bir aholi ulushiga taqsimlanganda ixtisoslashuv koeffitsienti 1 ga teng yoki katta bo'lganda yuzaga keladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, ixtisoslashuv koeffitsienti orqali iqtisodiy rayon viloyatlari, shahar va tumanlari kesimida aholi soni va kimyo sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini o'rganish orqali ularning mazkur sohada ichki hududlar doirasida qay darajada ixtisoslashayotganligini aniqlashga harakat qildik. Bularni quyidagi 1-jadvaldagi ma'lumotlarni kuzatish va o'rganish orqali aniqlash mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadvalda berilgan ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, viloyatlar kesimida kimyo sanoat ixtisoslashuvi Farg'ona viloyatida (kuchli) 128 ga teng va aksincha, Andijon, Namangan viloyatlarida esa, bu mos ravishda 25,5 va 20,7 ni hosil qiladi. Biroq, viloyatlar ichki miqyosdagi ixtisoslashuvda faqatgina Farg'ona viloyatining Farg'ona shahri va Qo'qon shahri (10,8 va 1,04) kuchli tarmoq ixtisoslashuviga ega. Tumanlarda esa ixtisoslashuv darajasi past, shunday bo'lsada, bu ko'rsatkich Marg'ilon shahri va Uchko'prik tumanida qolgan hududlarga nisbatan biroz yuqori, ya'ni 0,5 ixtisoslashuv koeffitsientiga teng. Andijon viloyatida esa shaharlar kesimida Andijon va Xonobod shaharlari (mos ravishda 4,2 va 1,3), tumanlar doirasida Qo'rg'ontepa, Izboskan va Ulug'nor tumanlari (3,8; 2,8; 1,7) o'rganilayotgan tarmoqqa ixtisoslashgan. Namangan viloyati ham bu borada shahar va tumanlar kesimida ixtisoslashuvi yuqori, ya'ni Namangan shahriga (1,1), Namangan tumaniga (6,8), Chust tumaniga esa (1,9) ixtisoslashuv koeffitsienti to'g'ri keldi.

1-jadval ma'lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy rayon ichki hududlari doirasidagi bunday ixtisoslashuvni yuzaga kelishida hududdagi ishlab chiqarilayotgan kimyo sanoat mahsulot hajmining ulushi garchi yuqori bo'lsada, bu ulushni shu hudud aholisi ulushiga nisbati olinganda, Farg'ona viloyatining tumanlari kesimida aholi soni yuqori bo'lganligidan, shu tumanlar natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatganligi bilan izohlash mumkin. Kimyo sanoat korxonalar faoliyatida keyingi yillarda yangi mulkchilik shakllarining yuzaga kelishi asosida ularni hududiy tashkil etish ancha murakkab jarayon sanaladi.

Shuning uchun mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda majmual (kompleks) geografik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Xususan, hukumat tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy shart-sharoitlar bilan birga, ushbu soha rivojlanishida geografik omillarni ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda respublikamizda kimyo sanoati ishlab chiqarishi to'g'risidagi islohotlar yanada chuqurlashayotgan bo'lsada, mazkur tarmoqning ixtisoslashuvi va rivojlanishining tarkib topishida hududlarning o'ziga xos geografik sharoitlari yetarlicha e'tiborga olinmayapti. Shu boisdan, kimyo sanoatining tarmoq va hududiy tarkibini yanada takomillashtirish, korxonalar joylashuvini optimallashtirishda geografik imkoniyatlarini hisobga olish, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, kimyo sanoati tarmoqlarini boshqa tarmoqlar bilan o'zaro kooperatsion aloqalarini rivojlantirish borasida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud, ya'ni:

➤ birinchi navbatda, kimyo sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rayon tabiiy sharoiti, aholisi va mehnat resurslari holatiga bog'liq ravishda hududiy tashkil etishni va ularning ixtisoslashuvini takomillashtirishning murakkabligi muammosi. Bunga xali hanuz hududlarda tashkil topgan kimyo sanoat korxonalari asosan katta miqdorda xomashyo omiliga asoslanganligi va ular mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalardan iboratligidir.

➤ ikkinchi navbatda esa, hududiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar bilan kimyo sanoat korxonalari o'rtasidagi munosabatlar sohasida davlat tomonidan aralashuvining mavjudligida ko'rish mumkin.

➤ Uchinchidan esa, kimyo sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmida yirik korxonalarning ulushi katta va aksincha, kichik kimyo sanoat korxonalarning ulushi esa past darajada bo'lib, bu jarayonlar kimyo sanoat tarmoqlarini iste'molchi tarmoqlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yishga imkon bermaydi.

1-жадвал

Farg'ona iqtisodiy rayoni hududiy kimyo sanoat ishlab chiqarish ixtisoslashuvi (01.01.2021 y.)

Hududlar	Aholi soni, ming kishi hisobida	Aholi ulushi, foizda	mahsulot hajmi, mrd. so'nda	mahsulot ulushi, foizda	Ixtisoslashuv koeffitsienti	Hududlar	Aholi soni, ming kishi hisobida	Aholi ulushi, foizda	mahsulot hajmi, mrd. so'nda	mahsulot ulushi, foizda	Ixtisoslashuv koeffitsienti	Hududlar	Aholi soni, ming kishi hisobida	Aholi ulushi, foizda	mahsulot hajmi, mrd. so'nda	mahsulot ulushi, foizda	Ixtisoslashuv koeffitsienti
Andijon viloyati	3188,1	100	817,9	100	$K_i \geq 1$	Namangan viloyati	2867,4	100	595,9	100	$K_i \geq 1$	Farg'ona viloyati	3820,0	100	4890,1	100	$K_i \geq 1$
Shaharlar						Shaharlar						Shaharlar					
Andijon	450,0	14,1	483,9	59,1	4,2	Namangan	644,8	22,5	159,9	26,8	1,1	Farg'ona	293,5	7,7	4066,3	83,1	10,8
Xonobod	43,2	1,3	13,9	1,7	1,3	Tumanlar						Qo'qon	256,4	6,7	341,4	7,0	1,04
Tumanlar						Mingbuloq	128,4	4,5	1,3	0,2	0	Quvasoy	94,9	2,5	11,6	0,2	0,08
Oltinko'l	180,5	5,7	33,5	4,1	0,7	Kosonsoy	212,9	7,4	9,4	1,6	0,2	Marg'ilon	238,9	6,2	143,3	3,0	0,5
Andijon	267,1	8,4	14,6	1,8	0,2	Namangan	179,8	6,3	256,4	43,0	6,8	Tumanlar					
Baliqchi	203,1	6,4	0,0	0,0	0	Norin	166,1	5,8	1,6	0,3	0,05	Oltiariq	214,4	5,6	22,4	0,4	0,07
Bo'ston	73,1	2,3	0,03	0,0	0	Pop	222,7	7,8	1,09	0,2	0	Qo'shtepa	193,4	5,1	1,9	0,03	0
Buloqboshi	144,5	4,5	0,3	0,06	0	To'raqo'rg'on	228,0	8,0	4,7	0,8	0,1	Bog'dod	218,9	5,7	7,4	0,15	0,02
Jalaquduq	187,9	6,0	7,7	0,9	0,2	Uychi	216,8	7,6	31,8	5,3	0,7	Buvayda	231,1	6,0	1,7	0,03	0
Izboskan	241,2	7,5	173,8	21,2	2,8	Uchko'rg'on	174,6	6,1	9,1	1,5	0,2	Beshariq	230,7	6,0	1,5	0,03	0
Ulug'nor	60,5	2,0	28,4	3,5	1,7	Chortoq	202,2	7,0	2,4	0,4	0,05	Quva	261,3	6,8	0,9	0,01	0
Qo'rg'ontepa	218,4	1,9	58,9	7,2	3,8	Chust	269,3	9,4	108,9	18,3	1,9	Uchko'prik	231,7	6,0	152,5	3,1	0,5
Asaka	332,6	10,4	5,1	1,2	0,11	Yangiyo'rg'on	221,8	7,7	9,53	1,6	0,02	Rishton	204,4	5,3	4,1	0,08	0,01
Marhamat	175,1	5,5	0,05	0,0	0,0							So'x	79,1	2,1	0,0	0,0	0
Shahrison	303,7	9,5	18,5	2,3	0,2							Toshloq	205,2	5,4	41,2	0,8	0,1
Paxtaobod	195,5	6,1	0,2	0,02	0							O'zbekiston	241,9	6,3	34,0	0,7	0,1
Xo'jaobod	111,7	3,5	0,0	0,0	0							Farg'ona	216,3	5,7	3,9	0,07	0,01
												Dang'ara	176,4	4,6	55,3	1,1	0,2
												Furqat	119,3	3,1	0,4	0,008	0
												Yoz'yovon	112,2	3,0	0,13	0,002	0,08

Eslatma: Jadvalda ixtisoslashuv koeffitsienti $K \geq 1$ bo'lganda yuzaga kelib, u hudud aholisi ulushini mahsulot ishlab chiqarish ulushiga nisbati ($K = Mu/Au$) asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. Bunda O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Ma'lumki, muayyan mezonlar asosida sanoatni rayonlashtirish, ularni tahlil qilish tadqiqot ishining asosiy bo'g'ini sanaladi [5, 8, 11, 12]. Kimyo sanoati va u bilan bog'liq xususiyatlarni e'tiborga olgan holda rayonlarga ajratish esa ancha mushkul jarayondir. SHu bois kimyo sanoatini rayonlashtirishda quyidagi mezonlar asos qilib olindi, ya'ni:

- ✓ ishlab chiqarish hajmi;
- ✓ kimyo sanoat korxonalari soni;
- ✓ kichik sanoat zonasi kabilari.

O'zbekiston va uning hududlari hozirga qadar bir necha marta har xil soha va yo'nalishlarga ko'ra rayonlashtirib kelingan. Masalan, A.Soliyev respublika hududini iqtisodiy mezonlar asosida iqtisodiy rayonlashtirgan (1998 y.), T.Djumaev esa, O'zbekiston tog'li hududlarini ekologik va iqtisodiy geografik jihatlariga ko'ra rayonlashtirgan (2004 y.) va hakazo.

Yuqorida ko'rsatilgan rayonlashtirish masalalari respublikamizning barcha jabhalarini qamrab olgan. Ammo ushbu tadqiqot ishida ularidan farqli ravishda Farg'ona iqtisodiy rayoni kimyo sanoati hududiy tarkibiga ko'ra rayonlashtirish amalga oshirildi. Bunga asos qilib professor A.F.Kurakin taklif etgan "Sanoat hududiy joylashuvining taksonomik birliklari" nomli jadval asosida kimyo sanoat tarmoqlari rayonlashtirildi. Shu asosda kimyo sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuv xususiyatlari va ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ularning ixtisoslashuvi, korxonalar soni kabi belgilariga ko'ra 4 ta kimyo sanoat rayonini ajratishni taklif etdik. Ularni shartli ravishda *eng yirik, yirik, o'rta va kichik* kimyo sanoat rayonlari sifatida belgilab olindi, ya'ni:

1. Eng yirik darajada kimyo sanoat mahsulot ishlab chiqarishiga ega bo'lgan rayonlar. Bunga iqtisodiy rayondagi eng yirik kimyo sanoat markazi Farg'ona shahri kiritildi.

2. Yirik darajada kimyo sanoat mahsulot ishlab chiqarishiga ega bo'lgan rayonlar. Mazkur sanoat rayonlari sifatida yirik kimyo sanoat markazlari Andijon, Namangan va Qo'qon shaharlari tanlab olindi.

3. O'rta darajada kimyo sanoat mahsulot ishlab chiqarishiga ega bo'lgan rayonlar. Ushbu rayon tarkibiga asosan hududiy ahamiyatga ega bo'lgan va hozirda shiddat bilan kimyo sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sayotgan shahar va tumanlar tanlab olindi. Bularga Marg'ilon va Xonobod shaharlari va Uchko'priq, Izboskan, Qo'rg'ontepa, Ulug'nor, Oltinko'l, CHust, Uychi, Namangan tumanlari kiritildi.

4. Kichik darajada kimyo sanoat mahsulot ishlab chiqarishiga ega bo'lgan rayonlar. Iqtisodiy rayondagi kimyo sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmi endi o'sib kelayotgan – Andijon, Jalaquduq, Asaka, Shaxrixon, Kosonsoy, Norin, To'raqo'r'on, Uchqo'rg'on, CHortoq, Yangiqo'rg'on, Quvasoy, Oltiariq, Bog'dod, Rishton, Toshloq, O'zbekiston, Farg'ona, Dang'ara, Yozyovon tumanlari tanlab olindi. Kimyo sanoat ishlab chiqarishga ega bo'lmagan ma'muriy tumanlar esa bu rayonlar tarkibiga kiritilmadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sanoat tarmoqlarini, xususan kimyo sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirishda ixtisoslashuvga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Chunki ixtisoslashuv asosida hududiy mehnat taqsimoti yuzaga keladi va ular esa, o'ziga xos kimyo sanoat rayonlarini shakllantirishi mumkin. Shu sababli olib borilgan tadqiqotda Farg'ona iqtisodiy rayoni kimyo sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuv xususiyatlari va ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ularning ixtisoslashuvi, korxonalar soni kabi belgilariga ko'ra 4 ta kimyo sanoat rayonini ajratishni taklif etdik.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил, 28 январдаги ПФ-60-сон "2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" Фармони. <http://lex.uz/docs/5841063> 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Share.
2. Абзалилова Л.Р. Устойчивость химического и нефтехимического комплекса региона: содержание, состояние и перспективы. На примере Республики Татарстан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – К., 2005. – С. 22.
3. Abdinazarova K.O. The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. e-ISSN: 2792-3983. www.openaccessjournals.eu. Volume: 2. Issue: 6., 2022. – P. 135-140.
4. Abdinazarova X.O. Sectoral and Regional Characteristics of the Chemical Industry in Uzbekistan. American Journal of Social and Humanitarian Research ISSN: 2690-9626, Vol. 3, No. 11, 2022.– P. 333-338.
5. Абдиназарова Х.О. Фарғона иқтисодий райони кимё саноати ҳудудий таркибини ривожлантириш ва такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари. География: табиат ва жамият // Электрон журнал. №1. – Т., 2021. – Б. 55-64.
6. Банников А.Ю. Кластер как новая форма территориальной организации химической промышленности Германии. Автореферат на соискание ученой степени кандидата географических наук. – Москва, 2015. – С. – 22.
7. Жўраев Ш.С. Ўзбекистонда саноатни барқарор ривожлантиришнинг минтақавий хусусиятлари / Монография. – Т.: Фан, 2016. – Б. 144.
8. Komilova N.Kh., Abdinazarova H.O. The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan // Экономика и социум. Электронное периодическое издание. №5(84) ч.1. – Р., 2021. – С. 248-255.
9. Komilova N.Kh., Abdinazarova Kh.O. Some theoretical aspects of the development of the chemical industry. European Science Review Austria Vienna 2019 January–February. – P. 25-27.
10. Koziboeva O.M, Mominov D.G, Abdinazarova X.O. Geoeological basis of South Fergana nature protection and rational use of natural resources. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022.
11. Солиев А.С., Курбонов Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг баъзи бир масалалари // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 47-жилд. – Т., 2016. – Б. 20-26.

-
12. Теоретические и методические подходы в экономической и социальной географии. Сборник статей. Отв. ред. В.Л. Бабурин, М.С. Савоскул. – М.: Геогр. ф-т МГУ, 2019. – С. 270.
 13. Шупер В.А. Экономический ландшафт Августа Лёша // География. № 21. – Искусство., 2006. – С. 32-34.
 14. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. 2010-2018. Т., 2019. – Б. 170.
 15. Ўзбекистон саноати. Статистик тўплам. – Т., 2021.